



HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLIH: YANGI PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR

FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Eshmurodova Mexriniso Tursunqulovna

Urgut tumani 15-maktab o'qituvchisi

MAQOLLAR ORQALI O'QUVCHILARDA HAYOTIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH

. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda maqollar va ulardan foydalanish jarayoni haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Milliy g'oya, maqol, ma'naviyat, darslik, estetika, so'z san'ati, hikmat, xazina

O'zbek xalqining asrlar davomida yaratgan og'zaki so'z san'ati namunalari milliy madaniyatimizning tarkibiy qismi hisoblanadi. Har bir xalqning asrlar idealini aks ettiruvchi og'zaki ijodi bo'lganidek, o'zbek xalqi ham qadimiy tarixga boy va rang-barang og'zaki adabiyot durdonalariga ega bo'lgan xalqlardan biridir.

Xalq ommasi tomonidan yaratilib xalqning talantli vakillari ijrosida sayqal topib, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan afsona va rivoyatlar, maqol va matallar, olqish va duolar, topishmoq va qo'shiqlar, latifa va naqlar, ertak va dostonlar o'zbek xalq og'zaki ijodini tashkil qiladi.

Xalq og'zaki ijodi janridan biri bo'lgan maqollarni o'rgatish ikkinchi tur ya'ni matn mazmuni tushunish va amalda foydalanish maqsadidagi o'qishni takomillashtirishga asos bo'ladi.

Maqollar- insonlarning hayoti va turmushi jarayonida to'plagan tajribalari, dunyoqarashi, o'zi yashab turgan ijtimoiy hayotga bo'lgan munosabati, o'tmish hayoti va uning ibratli saboqlari, shaxsning ruhiy holati, umid va orzularini ifodalaydi. Shuning uchun ham bola tarbiyasida, xususan estetik tarbiyada ijobiy ta'sir eta oladi.



Xalq ogʻzaki ijodi namunalari boshlangʻich sinflardan oʻquvchilarga oʻrgatib boriladi. Boshlangʻich sinfning deyarli barcha darsliklarida xalq ogʻzaki ijodi namunalari berilgan. Ona tili darsliklarida koʻproq xalq maqollari mashqlar tarkibiga singdirilgan. Kichik yoshdagi oʻquvchilarning psixologik va fiziologik xususiyatidan kelib chiqqan holda darsliklarga kiritilgan maqollar tushunilishi oson va komillikka daʼvat etuvchidir. Mavzu oʻrganilayotganda oʻqituvchining vazifasi mavzuni oʻrgatish bilan birga xalq ogʻzaki ijodi, shu jumladan, maqol janri haqida boshlangʻich maʼlumot berib borishdir. Berilgan maqollar oʻqituvchi rahbarligida avval ifodali qilib oʻqiladi va oʻquvchilar bilan birgalikda ushbu maqollarning maʼnosi oʻrganiladi.

Maqollarni oʻrgatish oʻqituvchidan katta tayyorgarlikni talab qiladi. Har bir darsga tayyorlanayotganda asar mazmuniga va unda ilgari surilgan gʻoyaga mos maqol ustida ishlash va uni oʻquvchilarga qanday tushuntirishni rejalashtirib olish lozim.

Oʻquvchilar savod oʻrgatish davridayoq maqollarni oʻrganib boradilar. “Alifbe” darsligida berilgan maqollar matn mazmuni bilan bogʻliq boʻlib, ular mavzu gʻoyasini oʻquvchilarga loʻnda va aniq yetkazish uchun xizmat qiladi.

Boshlangʻich sinflarda asosan maqolni ifodali oʻqish va yod olishga ahamiyat beriladi. Masalan: «Xalq oʻgiti - baxt kaliti» boʻlimidagi savol va topshiriqlarda «Rostgoʻylik haqida»gi maqollardan ayting, «Odob insonga husn» boʻlimida «Qanoatda barokat» maqolini maʼnosini tushuntirib bering, «Koʻklam-yashnadi olam» boʻlimida «Bilim olish haqida»gi maqollarni ayting kabi topshiriqlar berilgan. Har bir boʻlim yuzasidan berilgan topshiriqlarda u yoki bu maqolni oʻrganish koʻzda tutilgan.

Shuningdek, boshlangʻich sinf darsligida «Ona tili» darsligida «Bilim - davlatdan qimmat», «Olim boʻlsang olam seniki», «Rahmat olgan omondir, laʼnat olgan yomondir», «Vaʼdaga vafo - mardning ishi», «Doʻstlik - tunganmas boylik, «Kattaga hurmatda boʻl, kichikka izzatda boʻl» kabi maqollar keltirilgan. Bu maqollar oʻquvchilarni bilim olishga, vatanparvarlikka, mehnatsevarlikka, doʻstga sodiq boʻlishga undaydi.

2-sinfdan boshlab maqolning mazmunini oʻrganish va yod olishdan tashqari, matndagi izohtalab soʻzlar, birikmalar ustida lugʻat ishi oʻtkazish, badiiy til vositalari, koʻchma maʼnoli, qarama-qarshi maʼno bildiruvchi, maqolda takrorlanib kelayotgan soʻzlar maʼnosi yuzasidan ish olib borish talab etiladi.

Darslikda «Ona yurtning - oltin beshiging» maqoli berilgan. Mana shu maqol matni ustida ishlaganda: «Yurt» soʻzini qaysi soʻzlar bilan almashtirish mumkin?, «Maqolda ona yurt nimaga tenglashtirilayapti?», «Beshik oltindan boʻladimi?» kabi savollar berish yoʻli bilan oʻquvchilarning lugʻatini boyitish, bogʻlanishli nutqini oʻstirish ustida ishlanadi.

Darslikdagi mavzulardan kelib chiqib, maqollar guruhlab oʻrgatilishi ham mumkin. Masalan: 4-sinflarda «Ona yurtning - oltin beshiging», «Eldan ayrilguncha, jondan ayril», «Mehnat - baxt keltirar», «Odobing - zebu ziynating», «Olim boʻlsang olam seniki» kabi mavzular asosida birlashtirilib berilgan. Oʻquvchilarga maqollarni mavzu boʻyicha guruhlab oʻrgatishda oʻqish mavzulariga asoslaniladi. Bunda maqol mazmuniga mos asarlar nomini keltirish, uning mazmun-gʻoyasini asar bilan bogʻlash kerak. Bu jarayonda oʻquvchilarning hayotiy tajribalari asosida maqollar keltirish bilan maqollarni izohlash



yoki o'quvchilarga maqol g'oyasiga mos birorta hikoya tuzish mustaqil ish sifatida berilishi ham mumkin.

4-sinflarda maqol janri bo'yicha tahliliy ishlar o'quv yili davomida izchil uyushtirilib boriladi, ya'ni «Asar g'oyasiga oid maqol ayting», «Maqollar asosida krossvord tuzing, rebus yarating» kabi topshiriqlar beriladi, «Maqollar aytish musobaqasi», «Maqollar mushoirasi» kabilar tashkil qilinadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga maqollarni o'rgatishda shunchaki o'qish, yod olish bilan chegaralanibgina qolmay, balki, puxta tahlil qilish, hayotiy hodisalarda hal qilinishi mumkin bo'lgan muammolarni aniqlash, kuzatuv va tajribalar asosida xulosalar chiqarish, bu xulosalar atrofimizdagi olamni va insonlarni tushinish, inson faoliyati natijasida unda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni anglab yetish, shunga ko'ra kerakli qarorlar qabul qila olish ko'nikmasini rivojlantirish lozim.

Maqollar chuqur ma'noni ifoda eta bilishi, ixcham, pishiq va puxtaligi bilan xalq og'zaki ijodining boshqa turlaridan farq qiladi. Ularda mehnatkash xalqning orzu-umidlari, o'zaro munosabatlari, vatanparvarlik, insonparvarlik xislatlari, o'y fikrlari o'ziga xos shaklda aks etgan bo'ladi.

Yosh avlodni estetik tarbiyalashda xalq og'zaki ijodi turi bo'lgan maqollardan foydalanish esa ijobiy natijalarga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva Q., Rahmonbekova S. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. "O'qituvchi". – T.: 2017 yil.
2. Mirzayev T., Musaqulov A. "O'zbek xalq maqollari" - T.: 2005 yil
3. Mavlonova R. va boshqalar. Pedagogika T.: O'qituvchi. 2010 y.